

Konferensiyaning birinchi kuni o`z nihoyasiga yetdi

Katta adron kollayderi – dunyodagi eng katta tezlatgichlar kompleksidir. U Fransiya va Shvetsariya chegara hududlarida Jeneva ko`li vohasida, yuz metr yer ostida joylashgan. Kompakt myuon solinoidli (CMS) detektori kollayderdagi umumiy foydalanishga mo`ljallangan beshta qayd etuvchi detektorlardan biri bo`lib, standart modelini o`rganishdan boshlab (jumladan Xiggs bozonini o`z ichiga oluvchi) qora materiyani tashkil etishi mumkin bo`lgan zarrachalarni izlashgacha bo`lgan keng tadqiqotlar dasturini o`z ichiga olgan. Olib borilayotgan tadqiqotlar materiya mikrostrukturasini batafsil tushunish va Katta portlashdan so`ng koinot shakllanishining boshlang`ich bosqichlarini o`rganish imkonini beradi.

